2026-yil
9(1)-son

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(1)-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA FANLARI
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

UDK 159.9:316.356.2

Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), ISFT instituti mustaqil izlanuvchisi

O'ZBEK OILALARIDAGI EMOTSIONAL ALIENATSIYANING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK SABABLARI

Annotatsiya. Maqolada o'zbek oilalarida emotsional alienatsiyaning ijtimoiy-psixologik sabablari empirik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot 1250 nafar respondent ishtirokida mualliflik so'rovnomasi asosida amalga oshirilgan. Natijalar emotsional alienatsiyaning kuchayishi emotsional yaqinlik, oilaviy qo'llab-quvvatlash, motivatsiya, kommunikatsiya va hamkorlikning susayishi, shuningdek, raqamli muhitning salbiy ta'siri bilan bog'liqligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: emotsional alienatsiya, o'zbek oilasi, emotsional yaqinlik, oilaviy qo'llab-quvvatlash, kommunikatsiya, oilaviy hamkorlik, raqamli texnologiyalar.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИЧИНЫ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ АЛИЕНАЦИИ В УЗБЕКСКИХ СЕМЬЯХ

Аннотация. В статье эмпирически исследованы социально-психологические причины эмоциональной алиенации в узбекских семьях. Исследование проведено с участием 1250 респондентов с использованием авторского опросника. Установлено, что усиление эмоциональной алиенации связано со снижением эмоциональной близости, семейной поддержки, мотивации, коммуникации и сотрудничества, а также с негативным влиянием цифровой среды.

Ключевые слова: эмоциональная алиенация, узбекская семья, эмоциональная близость, семейная поддержка, супружеская коммуникация, семейное сотрудничество, цифровые технологии.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL CAUSES OF EMOTIONAL ALIENATION IN UZBEK FAMILIES

Abstract. The article empirically examines the socio-psychological causes of emotional alienation in Uzbek families. The study involved 1,250 respondents and used an author-developed questionnaire. The findings show that emotional alienation is associated with reduced emotional closeness, family support, motivation, communication, and cooperation, as well as the negative influence of the digital environment.

Keywords: emotional alienation, Uzbek family, emotional closeness, family support, spousal communication, family cooperation, digital technologies.

Kirish. Zamonaviy oilaviy munosabatlar ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar, urbanizatsiya, mehnat migratsiyasi, kasbiy bandlikning ortishi, gender rollarining o‘zgarishi va raqamli kommunikatsiya vositalarining kengayishi sharoitida rivojlanmoqda. Mazkur jarayonlar oilaning tashqi funksiyalarini o‘zgartirishi bilan birga, uning ichki emotsional tuzilmasiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Oilaviy inqiroz har doim ochiq konflikt, zo‘ravonlik yoki doimiy janjal shaklida namoyon bo‘lmaydi. Ayrim oilalarda ziddiyatlar tashqi jihatdan sezilmasa-da, muloqot mazmunining qashshoqlashuvi, bir-birining kechinmalariga befarqlik, umumiy qiziqishlarning yo‘qolishi va psixologik masofaning ortishi kuzatiladi. Bunday oilalar formal jihatdan barqaror, ammo emotsional jihatdan disfunksional bo‘lishi mumkin. Ajrimning psixologik xavfi oilaviy resurslar pasayib, xavf indikatorlari ortganida kuchayadi. Ayniqsa, emotsional alienatsiyaning yuqori darajasi bilan birga oilaviy motivatsiya, er-xotin kommunikatsiyasi, qo‘llab-quvvatlash va hamkorlikning pasayishi psixologik ajrimga xos kompleks profilni shakllantirishi mumkin. Emotsional alienatsiya oila a’zolarining jismonan bir makonda yashashiga qaramay, hissiy va psixologik jihatdan bir-biridan uzoqlashib borishini ifodalaydi. Mazkur fenomen oddiy ranjish, qisqa muddatli nizo yoki vaqtinchalik emotsional sovuqlikdan farq qiladi. Unda shaxs turmush o‘rtog‘iga o‘z ichki kechinmalarini bildirishni kamaytiradi, munosabatlarni yaxshilashga kamroq psixologik kuch sarflaydi, o‘zini tushunilmagan yoki qadrsiz his qiladi hamda oilaviy munosabatlarning kelajagiga ishonchini yo‘qota boshlaydi [1]. Emotsional alienatsiya mazmunan ijtimoiy izolyatsiya yoki yolg‘izlik bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ular bilan aynan bir hodisa emas. Shaxs keng ijtimoiy aloqalarga ega bo‘lishi va oila a’zolari bilan doimiy muloqot qilishi mumkin, biroq munosabatlar uning hissiy ehtiyojlarini qondirmasa, u subyektiv begonalashuvni boshdan kechiradi.

Metodologiya. L. Peplau va D. Perlman yolg‘izlikning kognitiv modelida real munosabatlar bilan shaxs kutayotgan munosabatlar o‘rtasidagi nomuvofiqlikni asosiy psixologik mexanizm sifatida ko‘rsatgan. Shaxs turmush o‘rtog‘idan kutayotgan yaqinlik, tushunish va qo‘llab-quvvatlashni ololmaganida, tashqi kommunikatsiya mavjud bo‘lishiga qaramay, emotsional begonalashuv kuchayishi mumkin [4]. Bowlbyning bog‘lanish nazariyasi emotsional yaqinlikning ontogenetik asoslarini tushuntiradi. Ilk bog‘lanish tajribalari shaxsning yaqin munosabatlarda ishonch, xavfsizlik, rad etilishdan qo‘rqish va emotsional ochiqlikni boshdan kechirish xususiyatlariga ta’sir qiladi. Katta yoshdagi nikoh munosabatlarida ham turmush o‘rtog‘i shaxs uchun emotsional xavfsizlik va psixologik tayanch manbai vazifasini bajarishi mumkin [6].

M. Bowen oilani o‘zaro bog‘liq emotsional tizim sifatida tushuntirib, oiladagi bitta a’zoning hissiy holati boshqa a’zolarning xulqi va psixologik farovonligiga ta’sir qilishini asoslagan. Bowen konsepsiyasidagi “emotsional uzilish” tushunchasi

shaxsning hal qilinmagan oilaviy ziddiyatlardan qochish maqsadida hissiy yoki jismoniy masofa o‘rnatishini ifodalaydi. Ushbu jarayon tashqi ziddiyatni vaqtincha kamaytirishi mumkin, biroq munosabatning asosiy psixologik muammosini bartaraf etmaydi. D.H. Olsonning oilaviy tizimlar modeli oilaviy jipslik va moslashuvchanlikni oila faoliyatining asosiy o‘lchamlari sifatida belgilaydi. Jipslik oila a’zolarining emotsional bog‘liqligi va avtonomiyasi o‘rtasidagi muvozanatni, moslashuvchanlik esa oilaviy rollar, qoidalar va boshqaruv shakllarining vaziyatga mos ravishda o‘zgarish qobiliyatini ifodalaydi [3].

Alienatsiya tushunchasining zamonaviy ilmiy talqini M. Seeman tomonidan tizimlashtirilgan bo‘lib, u begonalashuvni kuchsizlik, ma’nosizlik, me’yorlarning buzilishi, ijtimoiy izolyatsiya va o‘z-o‘zidan uzoqlashish kabi o‘zaro bog‘liq shakllarda tavsiflagan. Mazkur yondashuv alienatsiyani umumiy falsafiy tushunchadan empirik tadqiq qilinadigan psixologik va ijtimoiy konstruktga aylantirishga yordam berdi [2]. R. Weiss yolg‘izlikni emotsional va ijtimoiy shakllarga ajratgan. Emotsional yolg‘izlik yaqin, ishonchli va chuqur affektiv aloqaning yetishmasligi bilan, ijtimoiy yolg‘izlik esa kengroq ijtimoiy aloqalar tizimiga mansublikning susayishi bilan bog‘langan. Ushbu konsepsiya er-xotin birgalikda yashagan sharoitda ham ulardan biri o‘zini hissiy jihatdan yolg‘iz his qilishi mumkinligini tushuntirishga imkon beradi [3]. Zamonaviy tadqiqotlarda emotsional alienatsiya o‘zbek oilalaridagi emotsional yaqinlik, qo‘llab-quvvatlash, er-xotin kommunikatsiyasi, ota-ona-farzand aloqasi, oilaviy hamkorlik, raqamli texnologiyalarning ta’siri va subyektiv yolg‘izlik bilan bog‘liq integral psixosotsial hodisa sifatida tadqiq qilingan. Mazkur ishlarda oilaviy qo‘llab-quvvatlash, yaqinlik va hamkorlik himoya omillari, kommunikativ uzilishlar, salbiy kechinmalar va raqamli vositalardan nomuvofiq foydalanish esa xavf omillari sifatida ko‘rsatilgan [7]. Mavjud ilmiy tadqiqotlarning aksariyatida oilaviy jipslik, er-xotin moslashuvi, ota-ona-farzand aloqasi, yolg‘izlik yoki raqamli texnologiyalar alohida konstrukt sifatida o‘rganilgan.

Tadqiqot natijasi. Emotsional alienatsiyani ajrimning prediktori sifatida talqin qilish ushbu holatning ajrimni muqarrar ravishda keltirib chiqarishini anglatmaydi. U nikoh munosabatlarining ichki psixologik barqarorligi zaiflashganini, er-xotinlar o‘rtasidagi integrativ aloqalar buzilayotganini va oilaning keyingi faoliyatiga xavf tug‘diruvchi omillar mavjudligini ko‘rsatadi.

O‘zbek oilalarida emotsional alienatsiyani ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida talqin qilish mazkur holatni faqat er-xotin o‘rtasidagi vaqtinchalik hissiy sovuqlik, o‘zaro ranjish yoki kommunikativ qiyinchiliklar bilan cheklab tushuntirish imkonini bermaydi. Emotsional alienatsiya oilaviy munosabatlarning ichki psixologik tuzilmasida yuzaga keladigan murakkab transformatsiya bo‘lib, uning shakllanishida emotsional yaqinlikning susayishi, o‘zaro qo‘llab-quvvatlashning kamayishi, oilaviy motivatsiyaning zaiflashishi, kommunikativ disfunksiyalar, oilaviy rollar va majburiyatlarning nomutanosib taqsimlanishi, ota-ona va farzand munosabatlaridagi emotsional masofa, raqamli vositalarning oilaviy muloqotga

ta'siri, birgalikdagi faoliyatning qisqarishi hamda o'zaro hamkorlikning buzilishi kabi ko'plab ijtimoiy-psixologik omillar o'zaro bog'liq holda ishtirok etadi. Shu sababli emotsional alienatsiyani muayyan bitta sabab natijasi sifatida emas, balki oila ichidagi ijtimoiy-psixologik aloqalarning izchil zaiflashishi natijasida shakllanadigan tizimli fenomen sifatida tushuntirish ilmiy jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Emotsional yaqinlik er-xotin va oila a'zolari o'rtasidagi mehr, ishonch, samimiylik, psixologik ochiqlik va o'zaro daxldorlik darajasini ifodalaydi. Ushbu shkala oila a'zolarining o'z ichki kechinmalari bilan bo'lishishi, his-tuyg'ularini erkin ifodalashi, bir-birining emotsional holatini sezishi, psixologik ehtiyojlariga mos ravishda javob qaytarishi va emotsional jihatdan bir-biriga tayanch bo'lish xususiyatlarini baholaydi. Emotsional yaqinlik bo'yicha o'rtacha qiymatning 7,997 ballni tashkil etishi respondentlarda mazkur xususiyatning o'rtacha va nisbatan barqaror darajada namoyon bo'lganini ko'rsatadi. Ushbu natija oilalarda hissiy aloqalar mavjudligini tasdiqlasa-da, ularning barcha respondentlarda bir xil darajada mustahkam va chuqur shakllanmaganini ham anglatadi.

Oilaviy qo'llab-quvvatlash oila a'zolarining bir-biriga hissiy, ma'naviy, axborotiy va amaliy yordam ko'rsatish darajasini ifodalaydi. Ushbu shkala murakkab hayotiy vaziyatlarda turmush o'rtog'ining yonida bo'lish, uning muammolarini jiddiy qabul qilish, dalda berish, muvaffaqiyatlarini e'tirof etish, ruhiy zo'riqishlarni birgalikda yengishga tayyorlik va oila a'zolarining shaxsiy qiyinchiliklariga befarq bo'lmaslik xususiyatlarini baholaydi. Mazkur shkala bo'yicha o'rtacha qiymat 8,003 ballni tashkil etib, metodika tarkibidagi eng yuqori natija sifatida qayd etilgan. Bu respondentlarning oilaviy qo'llab-quvvatlashni muhim qadriyat va oilaviy munosabatlarning zarur tarkibiy qismi sifatida qabul qilishini ko'rsatadi. Biroq boshqa shkalalardan farqning juda kichikligi ushbu ustunlikni mutlaq ko'rsatkich sifatida emas, balki nisbiy tendensiya sifatida baholash zarurligini bildiradi.

Oilaviy qo'llab-quvvatlash shaxsda "men yolg'iz emasman", "meni tushunadigan va qo'llaydigan inson bor", "qiyinchiliklarim bilan yakka qolmayman" degan psixologik xavfsizlik hissini shakllantiradi. Ayniqsa, iqtisodiy qiyinchiliklar, kasbiy zo'riqish, sog'liq bilan bog'liq muammolar, farzand tarbiyasidagi murakkabliklar, qarindoshlik munosabatlaridagi ziddiyatlar va kundalik hayotiy stresslar sharoitida o'zaro qo'llab-quvvatlash oilaning psixologik barqarorligini saqlovchi muhim himoya resursiga aylanadi. Aksincha, oila a'zolarining bir-birining qiyinchiliklariga befarq bo'lib qolishi, emotsional ehtiyojlarni inkor etishi yoki "bu sening muammoing" tarzidagi munosabatni shakllantirishi oiladagi psixologik xavfsizlikni zaiflashtiradi.

Oilaviy motivatsiya er-xotinlarning nikoh munosabatlarini saqlash, rivojlantirish va mustahkamlashga bo'lgan ichki intilishini ifodalaydi. Mazkur shkala oilaning qadriyat sifatida qabul qilinishi, munosabatlar ustida ishlashga tayyorlik, yuzaga kelgan muammolarni hal etishga intilish, o'zaro mas'uliyat,

umumiy kelajakni tasavvur qilish, oilaning istiqboliga ishonish va munosabatlarning rivojlanishiga psixologik investitsiya kiritish darajasini baholaydi. Oilaviy motivatsiyaning o‘rtacha qiymati 8,002 ballni tashkil etgan. Ushbu natija oilani saqlashga bo‘lgan ichki yo‘nalish respondentlarda umumiy jihatdan mavjud ekanini ko‘rsatadi.

Oilaviy qarorlarni qabul qilishda ishtirokning cheklanishi, o‘zaro maslahatlashuvning yo‘qligi va hamkorlikning buzilishi ham emotsional alienatsiyaning muhim ijtimoiy-psixologik sabablaridan biridir. Bizning fikrimizcha, shaxsda “mening fikrim bu oilada ahamiyatsiz”, “men bilan maslahatlashilmaydi”, “barcha mas’uliyat faqat mening zimmamda” yoki aksincha “bu oilada mening hech qanday rol va vazifam qolmagan” kabi kechinmalarning shakllanishi psixologik daxldorlik hissini pasaytiradi. Mazkur holat uzoq davom etganida oila a’zolari o‘zlarini umumiy tizimning faol subyekti sifatida emas, balki bir xil makonda yashayotgan alohida individlar sifatida his qila boshlashlari mumkin.

Er-xotin kommunikatsiyasi nikoh munosabatlarida fikr, hissiyot, ehtiyoj, talab va kutishlarning qanday ifodalanishini tavsiflaydi. Ushbu shkala turmush o‘rtoqlarning bir-birini tinglashi, tushunishga intilishi, ochiq muloqot qilishi, shaxsiy ehtiyoj va kechinmalarini konstruktiv tarzda ifodalashi, fikrlaridagi farqlarni qabul qila olishi va nizolarni destruktiv qarama-qarshilikka aylantirmasdan hal qilish qobiliyatini baholaydi. Mazkur shkala bo‘yicha o‘rtacha qiymat 8,001 ballni tashkil etgan.

O‘zbek oilalari sharoitida kommunikativ begonalashuvga oiladagi ierarxik munosabatlar, gender rollariga oid an’anaviy kutilmalar, kattalarning fikriga yuqori darajada moslashish zarurati, kelishmovchiliklarni tashqariga chiqarmaslikka intilish va oilaviy muammolar haqida ochiq gapirishning ayrim hollarda nomaqbul deb baholanishi ham ta’sir qilishi mumkin. Mazkur ijtimoiy-madaniy omillar oila barqarorligini qo‘llab-quvvatlovchi funksiyani bajarishi mumkin bo‘lsa-da, shaxsiy ehtiyojlar muntazam bostirilgan va o‘zaro emotsional muloqot yetarli darajada shakllanmagan vaziyatlarda alienatsion kechinmalarning kuchayishiga sharoit yaratishi mumkin.

Ota-ona va farzand o‘rtasidagi emotsional aloqa oiladagi mehr, ishonch, qabul qilish, muloqot va psixologik xavfsizlik darajasini ifodalaydi. Mazkur shkala farzandning hissiy ehtiyojlari qay darajada tushunilishi, uning fikri tinglanishi, ota-onaning farzand hayotidagi emotsional ishtiroki, farzandning oila ichida o‘zini qabul qilingan, himoyalangan va ahamiyatli shaxs sifatida his qilishi kabi jihatlarni baholaydi. Ota-ona-farzand emotsional aloqasi bo‘yicha o‘rtacha qiymat 8,000 ballni tashkil etgan. Bu oilalarda avlodlararo munosabatlarning o‘rtacha va nisbatan barqaror darajada shakllanganini anglatadi.

Raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, virtual muloqot va sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishning oilaviy munosabatlarga ta’siri zamonaviy oilalarda emotsional alienatsiyaning yangi ijtimoiy-psixologik

determinantlaridan biri sifatida qaralishi mumkin. Mazkur shkala raqamli faoliyat sabab yuzma-yuz muloqotning kamayishi, diqqatning bo‘linishi, turmush o‘rtog‘ini e’tiborsiz qoldirish, emotsional ehtiyojlarga o‘z vaqtida javob bermaslik, birgalikdagi vaqtning individual raqamli faoliyatga almashishi va real munosabatlardan virtual makonga chekinishni aks ettiradi. Shkalaning o‘rtacha qiymati 7,999 ballni tashkil etgan.

Birgalikda vaqt o‘tkazish oila a’zolarining bo‘sh vaqtni birgalikda tashkil etishi, umumiy mashg‘ulotlar, suhbatlar, sayrlar, oilaviy marosimlar, qarindoshlik tadbirlari, madaniy hordiq va mazmunli faoliyatlarda birgalikda qatnashish darajasini baholaydi. Birgalikda vaqt o‘tkazish bo‘yicha o‘rtacha qiymat 7,998 ballni tashkil etgan. Bizning fikrimizcha, birgalikdagi vaqtning kamayishi emotsional alienatsiyaning muhim ijtimoiy-psixologik sabablaridan biri bo‘lib, u er-xotinlarning psixologik hayoti alohida yo‘nalishlarda rivojlana boshlaganini ko‘rsatishi mumkin. Turmush o‘rtoqlar bir oilaning a’zolari bo‘lib qoladilar, biroq bir-birining kundalik hayoti, ichki kechinmalari, qiziqishlari, rejalari va muammolarida faol ishtirok etmay qo‘yadilar. Birgalikdagi hayot asta-sekin bir makonda parallel mavjud bo‘lish shakliga o‘tadi.

Oilaviy hamkorlikning o‘rtacha qiymati 7,998 ballni tashkil etgan. Ushbu natija respondentlarda oilaviy vazifalarni birgalikda bajarish va o‘zaro yordam ko‘rsatish tendensiyasi mavjudligini ko‘rsatadi. Oilaviy hamkorlik munosabatlarning amaliy-xulqiy asosini tashkil qiladi. U uy-ro‘zg‘or yumushlari, farzand tarbiyasi, moliyaviy mas’uliyat, qarindoshlik munosabatlari, muhim qarorlarni qabul qilish va kundalik hayotni tashkil etishda tomonlarning o‘zaro sheriklik darajasini aks ettiradi. Bizning fikrimizcha, oilaviy hamkorlikning buzilishi emotsional alienatsiyani kundalik hayotdagi muntazam adolatsizlik, e’tiborsizlik va mas’uliyatning nomutanosib taqsimlanishi orqali kuchaytiradi. Oilada bir tomon o‘z zimmasiga doimiy ravishda ortiqcha mas’uliyat tushayotganini his qilsa, ikkinchi tomon esa uning mehnati va hissasini tabiiy majburiyat sifatida qabul qilsa, asta-sekin norozilik, qadrsizlanish va psixologik charchoq shakllanishi mumkin. Shaxs o‘zini turmush o‘rtog‘ining sherigi emas, balki barcha vazifalarni bajaruvchi yoki faqat muayyan oilaviy rolni ado etuvchi shaxs sifatida his qila boshlashi mumkin.

1-jadval

O‘zbek oilalarida emotsional alienatsiya namoyon bo‘lishini o‘rganuvchi ijtimoiy-psixologik so‘rovnomaning tavsiflovchi qiymatlari (n=1250)

№	Subshkalalar	O‘rtacha qiymat (M)	Standart og‘ish (SD)
1	Emotsional yaqinlik	7,9	2,5
2	Oilaviy qo‘llab-quvvatlash	8,0	2,5
3	Oilaviy motivatsiya	8,0	2,5
4	Oilaviy qarorlar va hamkorlik	8,0	2,5
5	Er-xotin kommunikatsiyasi	8,0	2,5

6	Ota-ona-farzand emotsional aloqasi	8,0	2,5
7	Raqamli texnologiyalar va SI salbiy ta'siri	7,9	2,5
8	Birgalikda vaqt o'tkazish	7,9	2,5
9	Oilaviy hamkorlik	7,9	2,5
10	Emotsional alienatsiya	7,9	2,5

Emotsional alienatsiya metodikaning markaziy diagnostik shkalasi bo'lib, shaxsning oilada o'zini ruhiy jihatdan begona, tushunilmagan, qadrsiz, yolg'iz yoki hissiy jihatdan uzilgan deb his qilish darajasini baholaydi. Mazkur shkala bo'yicha o'rtacha qiymat 7,997 ballni tashkil etgan. Emotsional alienatsiya salbiy yo'nalishdagi shkala bo'lgani sababli natijaning ortishi oiladagi ruhiy sovuqlik, psixologik masofa va ichki yolg'izlikning kuchayishini anglatadi.

Emotsional alienatsiya turmush o'rtog'iga nisbatan yaqinlikning pasayishi, suhbatga ehtiyoj sezmaslik, ichki kechinmalarni yashirish, shaxsiy muammolar va yutuqlar bilan bo'lishmaslik, birgalikdagi faoliyatlardan qochish, oilaviy muammolarga befarqlik, oila a'zolarining psixologik ehtiyojlariga sezgirlikning kamayishi va munosabatlarning kelajagiga ishonmaslik orqali namoyon bo'ladi. Ushbu fenomen oddiy ranjish yoki vaqtinchalik hissiy sovuqlikdan tubdan farq qiladi. Vaqtinchalik ziddiyatda tomonlar munosabatlarni tiklash, bir-birini tushunish va yo'qolgan yaqinlikni qayta shakllantirish istagini saqlab qoladilar. Emotsional alienatsiyada esa shaxs oilaviy munosabatlarga hissiy va psixologik investitsiya kiritishni kamaytiradi hamda turmush o'rtog'ini o'zining ichki dunyosidan asta-sekin chetlashtira boshlaydi.

O'zbek oilalari sharoitida emotsional alienatsiya ayrim holatlarda uzoq vaqt yashirin shaklda saqlanishi mumkin. Farzandlar manfaatlari, qarindoshlarning fikri, oilaning ijtimoiy obro'sini saqlash zarurati, iqtisodiy o'zaro bog'liqlik, ijtimoiy bosim, an'anaviy qadriyatlar va oilaviy munosabatlarning tashqi yaxlitligini saqlashga bo'lgan yuqori ehtiyoj er-xotinlarning birgalikda yashashini davom ettirishiga xizmat qilishi mumkin. Biroq mazkur omillar er-xotinlar o'rtasidagi ichki emotsional begonalashuvni avtomatik ravishda bartaraf etmaydi. Aksincha, ayrim vaziyatlarda tashqi oilaviy barqarorlik va ichki psixologik begonalashuv bir vaqtning o'zida mavjud bo'lishi mumkin. Er-xotin ijtimoiy rollarini bajarib, farzandlar tarbiyasida ishtirok etib, qarindoshlik aloqalarini saqlagan holda ham bir-birining ichki dunyosidan uzoqlashgan bo'lishi mumkin. Bunday holatda oila institutsional va ijtimoiy jihatdan faoliyat ko'rsatishda davom etsa-da, uning emotsional-integrativ funksiyasi zaiflashadi. Shuning uchun o'zbek oilalaridagi emotsional alienatsiyani o'rganishda oilaning tashqi barqarorlik ko'rsatkichlari bilan cheklanmasdan, uning ichki psixologik mazmuniga, er-xotinlarning subyektiv kechinmalariga, daxldorlik, yaqinlik, qo'llab-quvvatlash, tushunilganlik va qadrlanganlik hissiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Demak, o'zbek oilalaridagi emotsional alienatsiya shaxslararo, oilaviy-funksional, ijtimoiy-madaniy va zamonaviy kommunikativ omillarning kompleks

o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladigan ko‘p omilli ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida namoyon bo‘ladi. Uning shakllanish mexanizmi, avvalo, oila a’zolarining bir-biriga nisbatan psixologik daxldorlik hissining pasayishi, emotsional ehtiyojlarning muntazam qondirilmasligi, qo‘llab-quvvatlash va o‘zaro tushunishning kamayishi, oilaviy identifikatsiyaning zaiflashishi hamda shaxsiy va oilaviy hayot maydonlarining bir-biridan uzoqlashib borishi bilan izohlanadi. Emotsional alienatsiyani o‘zbek oilalarining ichki psixologik holatini aks ettiruvchi muhim diagnostik ko‘rsatkich sifatida baholash mumkin. Uning yuqori darajada namoyon bo‘lishi oilaning tashqi tuzilmasi saqlangan taqdirda ham ichki emotsional integratsiya, o‘zaro daxldorlik va “biz” identifikatsiyasining zaiflashganini ko‘rsatadi.

Muhokama. Birinchi guruh oilaning emotsional-integrativ resurslarini ifodalaydi. Unga emotsional yaqinlik (7,997), oilaviy qo‘llab-quvvatlash (8,003), oilaviy motivatsiya (8,002) va birgalikda vaqt o‘tkazish (7,998) kiradi. Mazkur shkalalar oila a’zolarining bir-biriga hissiy daxldorligi, o‘zaro ishonchi, psixologik tayanch bo‘lishi, oilaviy munosabatlarni saqlash va rivojlantirishga bo‘lgan ichki motivatsiyasi hamda umumiy emotsional tajribalarni shakllantirish imkoniyatini aks ettiradi. Ushbu ko‘rsatkichlarning pasayishi oiladagi hissiy integratsiya, o‘zaro daxldorlik, psixologik xavfsizlik va “biz” identifikatsiyasining susayishini anglatishi mumkin. Emotsional yaqinlikning pasayishi turmush o‘rtoqlar o‘rtasida samimiylik, ichki kechinmalar bilan bo‘lishish va bir-birining psixologik ehtiyojlariga sezgir munosabat bildirish imkoniyatlarini cheklaydi. Oilaviy qo‘llab-quvvatlashning susayishi esa shaxsning murakkab hayotiy vaziyatlarda o‘zini yolg‘iz, tushunilmagan yoki yetarlicha qadrlanmagan deb his qilishiga sharoit yaratadi. Oilaviy motivatsiyaning pasayishi munosabatlarni rivojlantirish, mavjud muammolarni birgalikda bartaraf etish va oilaning kelajagiga psixologik investitsiya kiritish istagining kamayishi bilan tavsiflanadi. Birgalikda vaqt o‘tkazishning qisqarishi esa oila a’zolari o‘rtasidagi umumiy ijobiy tajribalar, hissiy almashinuv va kundalik psixologik aloqalarning kamayishiga olib kelishi mumkin.

Ikkinchi guruh oilaviy tizimning kommunikativ-funksional va xulqiy determinantlarini ifodalaydi. Unga oilaviy qarorlar va hamkorlik (8,002), er-xotin kommunikatsiyasi (8,001), ota-ona-farzand emotsional aloqasi (8,000) hamda oilaviy hamkorlik (7,998) kiradi. Ushbu ko‘rsatkichlar oilada fikr va ehtiyojlarning qay darajada hisobga olinishi, qarorlarning birgalikda qabul qilinishi, muloqotning ochiqligi, nizolarning konstruktiv hal etilishi, avlodlararo emotsional aloqalarning sifati va kundalik vazifalarning o‘zaro muvofiqlashtirilgan holda bajarilishini tavsiflaydi. Mazkur shkalalarda ko‘rsatkichlarning pasayishi oilada qarorlar yetarli darajada kelishilmasligi, tomonlardan birining fikri yoki ehtiyojlari muntazam ravishda e’tibordan chetda qolishi, nizolar konstruktiv tarzda hal etilmasligi, oilaviy majburiyatlarning nomutanosib taqsimlanishi va oila a’zolari o‘rtasidagi tizimli psixologik aloqaning zaiflashishini anglatishi mumkin. Bunday sharoitda oilaviy munosabatlarning nafaqat hissiy, balki amaliy-xulqiy asoslari ham izdan chiqadi.

Oilaviy qarorlar va hamkorlikning buzilishi shaxsda “mening fikrim bu oilada muhim emas”, “men bilan maslahatlashilmaydi”, “men faqat majburiyatlarni bajaruvchi shaxsman” yoki “barcha mas’uliyat mening zimmamda” kabi alienatsion kechinmalarni shakllantirishi mumkin. Er-xotin kommunikatsiyasining zaiflashishi esa o‘zaro tushunmovchilik, ichki kechinmalarni yashirish, bir-birining ehtiyojlarini noto‘g‘ri talqin qilish va hissiy uzoqlashuv uchun psixologik sharoit yaratadi.

Ota-ona va farzand o‘rtasidagi emotsional aloqaning zaiflashuvi oiladagi alienatsiyaning faqat er-xotin munosabatlari bilan chegaralanib qolmasdan, butun oilaviy tizimga tarqalishini ko‘rsatadi. Er-xotin munosabatlaridagi hissiy sovuqlik, taranglik yoki befarqlik farzandlarning oiladagi psixologik xavfsizlik, qabul qilinganlik va daxldorlik hissiga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu jihatdan emotsional alienatsiya oilaning alohida bir a’zosi yoki juftlik o‘rtasidagi muammo sifatida emas, balki oilaviy tizimdagi munosabatlar sifatini o‘zgartiruvchi kengroq ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Oilaviy hamkorlikning pasayishi ham emotsional alienatsiyaning kundalik xulq-atvor darajasida shakllanishiga zamin yaratadi. Oila hayotining maishiy, tarbiyaviy, moliyaviy yoki tashkiliy vazifalari muntazam ravishda bir tomon zimmasiga yuklanishi, o‘zaro yordam va sheriklikning yetarli darajada bo‘lmasligi shaxsda adolatsizlik, qadrsizlanish va psixologik charchoq hissini shakllantirishi mumkin. Shu sababli oilaviy alienatsiyaning sabablarini faqat hissiy kechinmalar doirasida emas, balki oiladagi kundalik o‘zaro ta’sir va hamkorlikning real tashkil etilishi bilan bog‘liq holda tahlil qilish zarur.

Uchinchi guruh oiladagi emotsional begonalashuvni bevosita aks ettiruvchi va uni kuchaytiruvchi xavf omillarini qamrab oladi. Unga raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning salbiy ta’siri (7,999) hamda emotsional alienatsiya (7,997) kiradi. Mazkur shkalalarda ko‘rsatkichlarning ortishi yuzma-yuz muloqotning kamayishi, oilaviy vaziyatlarda diqqatning raqamli qurilmalarga yo‘nalishi, virtual muhitga psixologik chekinish, turmush o‘rtog‘ining hissiy ehtiyojlariga sezgirlikning pasayishi, hissiy sovuqlik, ichki yolg‘izlik va psixologik masofaning kuchayishini anglatishi mumkin.

O‘zbek oilalaridagi emotsional alienatsiyaning shakllanishi faqat emotsional alienatsiya shkalasining yuqori ko‘rsatkichi bilan belgilanmaydi. Emotsional alienatsiyaning ortishi bilan bir vaqtda emotsional yaqinlik, oilaviy qo‘llab-quvvatlash, oilaviy motivatsiya, er-xotin kommunikatsiyasi, birgalikda vaqt o‘tkazish va oilaviy hamkorlik ko‘rsatkichlarining pasayishi qayd etilsa, bu oilaviy munosabatlarning ichki psixologik integratsiyasi zaiflashayotganini ko‘rsatuvchi kompleks diagnostik profil sifatida baholanishi mumkin. Bunda alienatsiya individual emotsional kechinmadan ko‘ra kengroq ma’noga ega bo‘lib, oilaning hissiy, kommunikativ va funksional komponentlaridagi o‘zaro bog‘liq disfunksiyalar mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, emotsional alienatsiya o‘zbek oilalarida er-xotin o‘rtasidagi emotsional yaqinlik, ishonch, qo‘llab-quvvatlash, motivatsiya,

kommunikatsiya va hamkorlikning izchil zaiflashuvi natijasida shakllanadigan ko‘p komponentli ijtimoiy-psixologik fenomen hisoblanadi. Uning kuchayishi oilaning tashqi yaxlitligi saqlangan holda ichki psixologik integratsiyaning susayishi, o‘zaro daxldorlik va munosabatlarni tiklashga bo‘lgan motivatsiyaning kamayishi bilan tavsiflanadi. Raqamli texnologiyalar esa ushbu jarayonning mustaqil sababi emas, balki mavjud emotsional va kommunikativ muammolarni kuchaytiruvchi vositachi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois emotsional alienatsiyani oilaviy munosabatlardagi yashirin disfunksiyalar, psixologik uzoqlashuv va munosabatlarning ichki barqarorligi zaiflashuvini aniqlovchi integral diagnostik ko‘rsatkich sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Olson D.H., Portner J., Lavee Y. FACES III: Family Adaptability and Cohesion Evaluation Scales. - St. Paul: University of Minnesota, 1985. - 42 p.
2. Spanier G.B. Measuring dyadic adjustment: New scales for assessing the quality of marriage and similar dyads // Journal of Marriage and the Family. - 1976. - Vol. 38, № 1. - P. 15-28. - DOI: 10.2307/350547.
3. Pianta R.C. Child-Parent Relationship Scale. - Charlottesville: University of Virginia, 1992.
4. Russell D.W., Peplau L.A., Cutrona C.E. The revised UCLA Loneliness Scale: Concurrent and discriminant validity evidence // Journal of Personality and Social Psychology. - 1980. - Vol. 39, № 3. - P. 472-480. - DOI: 10.1037/0022-3514.39.3.472.
5. Russell D.W. UCLA Loneliness Scale, Version 3: Reliability, validity and factor structure // Journal of Personality Assessment. - 1996. - Vol. 66, № 1. - P. 20-40. - DOI: 10.1207/s15327752jpa6601_2.
6. Yangiboyeva D.R. O‘zbek oilalaridagi emotsional alienatsiyaning ijtimoiy-psixologik indikatorlari // Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar. - 2026. - Jild 3, № 7. - B. 75-80. - DOI: 10.67227/7ys36858.
7. Yangiboyeva D.R. O‘zbek oilalarida emotsional alienatsiyaning psixosotsial reprezentatsiyalari // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. - 2026. - № 6. - B. 90-97.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(1)-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694